

SO‘Z MANOLARI

Mumtozbeginim Turg‘unova

Xoreografiya jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Abduhamidov Akmal

Ilmiy rahbar; O‘z DSMI FMF “Xoreografiya” o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada so‘z va uning asosiy manolari - denotativ va konnotativ manolari, ularning nutq jarayonidagi asosiy farqlari, shuningdek, umumistemol so‘zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bo‘lgan so‘zlar hamda ularning manolari bildirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** denotativ ma no, konnotativ ma no, umumistemol so‘zlari, funksional xususiyatlar, sinonimlar, uslubiy xoslik.*

Tilshunoslikning barcha bolimlarida organilishi mumkin bo‘ladigan lingvistik birlik so‘zdir. Zero, so‘z, nafaqat, lug aviy birlik balki morfologik sathda sintaktik aloqani vujudga keltiradigan muhim vositadir. Bu holatlar so‘zning denotative (atash) manosi bilan bogliq ravishda yuz beradi. So‘zning denotativ manosi uning til tizimida muhim lug aviy birlikligini anglatgansa, shu ma no bilan uzviy bog liq holda vujudga keladigan konnotativ mano so‘zning funksional imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va uning uslubshunoslikning ham muhim tekshirish obyekti ekanligini namoyon etadi. Nutq uslublarida qollanilishi nuqtayi nazaridan so‘zlar: umumistemol so‘zlar va nutqning ayrim turlari uchun xos bolgan so‘zlar kabi ikki guruhga ajratiladi. 1. Umumistemol so‘zlar mohiyat jihatidan til lug at tarkibining asosini tashkil qiladi va barcha nutq turlarida tayanch lugaviy birlik sifatida qollaniladi. 2. Nutqning ayrim turlari uchun ham xoslangan so‘zlar bo‘lib, ular uslubiy jihatdan chegaralangan boladi. Masalan, kitobiy so‘zlar kitobiy nutq uchun xoslangan bolsa, ogzaki nutqning ham

uslubiy xoslangan soʻzlari mavjud. Shuningdek, ilmiy terminlar ilmiy nutq uchun, rasmiy atamalarning rasmiy nutqqa xosligi, eskirgan soʻzlar, dialektizmlar, argo va jargonlarning, asosan, badiiy nutqda qollanilishi soʻzlarning nutqlararo taqsimlanishi lingvistik ehtiyoj natijasi ekanligidan dalolat beradi. Keltirilgan mulohazalar soʻz, uning manosi va uslubiy xoslanganlik munosabatlari koʻplab tadqiqotlar olib borilishi uchun asos boʻlishini koʻrsatadi. Matnda soʻzlar asl lugʻaviy manosidan tashqari kochma manolarda qollanish xususiyatlariga ham ega. Maʼno koʻchishi orqali vujudga keladigan mano soʻzning hosila maʼnosi hisoblanadi. Soʻzning hosila maʼnosi matn orqali anglashiladi. Shunday ekan, soʻz manosini asl yoki hosila mano ekanligi lugʻaviy birliklarning matniy qollanilishi asosida izohlash mumkin. Barcha lugʻaviy birliklar singari umumistemol soʻzlar ham turli manolarda qollaniluvchi vositalardandir. Masalan, opka soʻzi asl lugʻaviy manosi koʻra odam organizmining nomi. Shu manoni ifodalashiga koʻra bu soʻz denotativ maʼnoga ega. Biroq, - Kerilmay oʻl! -, dedi jahil bilan Yoʻldosh ketgan tomonga qarab. -Hali ham oʻsha-oʻsha! Opka! (OʻUsmonov "Girdob") gapidagi opka soʻzi asl manosida qollanilmagan. Bu gapda ushbu soʻz hosila mano orqali "oziga bino qoygan" manosida qollanilgan. Bunday holatlarda koʻpincha hosila maʼno orqali soʻzlovchining munosabati ham ifoda etiladi. Yangi maʼno ifodasi va munosabat bildirilishi asosida bu xildagi lugʻaviy vositalar uslubiy vositaga ham aylanadi. Yuqorida keltirilgan "opka" soʻzi orqali ham soʻzlovchining salbiy munosabati ifoda etilgan. Muhimi shundaki, nutq jarayonida hosila maʼno ifodalanishi muayyan tushunchani oldin ifoda etilmagan shakl orqali anglatib, badiiylik, obrazlilikni kuchaytirish vositasiga ham aylanadi. Masalan, Torga tor dunyo, u battar tutaqib ketdi. - Siz bolmay kim?! Qachon qarasa, qoynimni puch yongoqqa tolqazasiz? Siz tengilar hoʻ-oʻ qachon edi - yegani oldida, yemagani ketida (OʻUsmonov "Girdob"). Keltirilgan matnlarda ikki bor ishlatilgan "tor" soʻzlarining biri asl manosida sifat turkumi shaklida qollanilgan, ikkinchisi esa, "inson" maʼnosida metonimik maʼno ifodalagan. Shuningdek, "puch ong, oq" birikmasi orqali "amalga oshmaydiganlik", yegani oldida, yemagani ketida birikmalari bilan taʼminlanganlik" tushunchalarining ifodalanishi bu lugʻaviy vositalarning matnida denotativ va

konnotativ vazifadagi lug aviy birliklar ekanligidan dalolat beradi. Soʻzning turli ma nolarda qollanilib, muayyan vazifalarni bajarishi nutqqa xos bo lib, nutq soʻzning ma no qirralarini namoyon etuvchi turli xususiyatlarini ozida mujassamlashtiruvchi manbadir. Soʻzning turli mano nozikliklariga ega ekanligi, ayniqsa, sinonim soʻzlar qollanilishida yorqin korinadi. Masalan, Saltanat erining orqasidan yeb qoʻygudek oqrayib turdi-da, qoʻlidagi alyumin tovoqni taraqlatib shkaf taxtasiga tashlab, u ham bolasi yotgan xonaga kirib ketdi (OʻUsmonov "Girdob"). Qaramoq soʻzi "biror narsa yoki tomonga koʻz tashlash, nazar tashlash" maʼnosidagi soʻz. 3. Tilda ushbu maʼnoni ifodalashda bundan tashqari "termilmoq, tikilmoq, nazar solmoq, qiyp boqmoq" kabi soʻz shakllari mavjud. Shuningdek, keltirilgan matndagi "oʻqraymoq" soʻzi ham qoʻllaniladi. Bunday soʻz qoʻllanishining muhim jihatlaridan biri tushunchaning turli darajalarda ifoda etilishidir. Chunonchi, tikilmoq soʻzida "koʻz uzmaslik" maʼnosi mavjud bolsa, oʻqraymoq soʻzida "nafratli qarash" maʼnosi mavjud. Soʻzlarning bu xildagi mano nozikliklaridan nutq yoʻnalishiga mos holda foydalaniladi. Yuqoridagi keltirilgan parchada soʻzlovchilarning bir-biriga yomob munosabarda boʻlgan holati tasvirlangan va ulardan biriga nisbatan "qaramoq" maʼnosidagi oʻqrayib soʻzi orqali munosabat bildirilgan. Sinonimik qatordagi soʻzlarning muhim jihatlari bir xil maʼnoli, turli ma no boʻyoqlariga ega boʻlgan soʻzlar ekanligidadir. Sinonimlardagi bu xususiyatlar ulardagi tasviriylikni belgilaydi va oddiy soʻzning hosila mano ifodalashi singari nutqiy imoniyatlarga ega boʻladi. Badiiy matnlarda lugʻaviy vositalarning asl maʼnosidan boshqa maʼnolarda qoʻllanilishi soʻzlarning keng imkoniyatlarga ega boʻlgan vosita ekanligini til birliklarining rang-barang xususiyatlari mavjudligidan dalolatdir. Masalan, nazariy masalalarni yechishga bel bogʻlagan odam, avvalo, oʻzi qomuschi boʻlmogʻi lozim (OʻUsmonov "Girdob"). Gapidagi "bel bogʻlamoq"ning hosila maʼnosi "ahd qilmoq". Soʻzlarning hosila ma no ifodalashi va sinonimik qatorlarni yangi soʻzlar bilan boyib borishining ham oʻzgacha xos qonuniyatlari bor. Chunonchi, hosila ma no hosil boʻlishida qiyoslash, oʻxshatish maʼnolari ham asos boʻlishi mumkin. Masalan, Hozir ham Azizning dili xufton! Koʻtarinki kayfiyatidan asar ham yoʻq (OʻUsmonov "Girdob") gapidagi xufton soʻzi "kun bilan tun

o'rtasidagi qorong'ulik payti"ni ifodalaydi. Qorong'ulikka qiyosam kishining xafaqon holati, ko'ngil noxushligi dili xufton ifodasi orqali ifodalangan. Sinonimlarda ham yangi so'zlar so'z ma'nosidagi nozikliklarni ifodalash maqsadida yaratiladi: Sergey Mashveevichning yelib - yugurib, kolxozga chiqib, ozgina yer olib bergan paytlarini xotirladi-yu, beixtiyor kulimsiradi (O' .Usmonov "Girfob") gapidagi "kulimsiradi" so'zi ham umumiy ma'noda "kulmoq" ma'nosini ifodalaydi. "Kulmoq" tushunchasini ifodalovchi boshqa so'zlardan farqli ravishda bu so'z kulgining past darajasidagi belgisini ifodalaydi. Bu so'z ifodasida "kulgi" ma'nosi emas, shu ma'nodagi so'zning sal bajarilishi ma'nosi mavjud. Bir umumiy tushunchani turli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev N., Usmonov S., Rasulov U. Ozbek tili. -Toshkent, "Oqituvchi, 1970. - B. 46.
2. Umurqulov B. Badiiy so'z jozibasi. -Toshkent: Muharrir, 2021. -B. 90.
3. Hojiyev A. Ozbek tili sinonimlarining izohli lugati. -Toshkent, Oqituvchi; 1974. -B. 249.
4. www.ziyo.uz
5. www.uzwekipediya.uz
6. www.uzbekensiklopediyasi.uz